

FRAZEOLOGIZMLAR HAQIDA MA'LUMOT. BADIY ASARLARDA**FRAZEOLOGIZMNING QO'LLANISHI VA MA'NOSI****Toshpo'latova O'g'iljamol**

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti,
amaliy filologiya ta'lif yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14539902>

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiy asarlarda, frazeologizmlarning qo'llanish usullari, ma'nolari va etimologiyasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, frazema, turg'un, etimologiya, denotativ, leksema, ibora, uslubiy bo'yodkorlik, lison, nutq.

**INFORMATION ABOUT PHRASEOLOGISMS. USE AND MEANING OF
PHRASEOLOGISMS IN LITERATURE**

Abstract. This article analyzes the methods of use, meanings and etymology of phraseologisms in literary works.

Keywords: Phraseology, phraseme, stable, etymology, denotative, lexeme, expression, stylistic coloring, language, speech.

ИНФОРМАЦИЯ О ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ. УПОТРЕБЛЕНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ**ФРАЗЕОЛОГИИ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ**

Аннотация. В статье анализируются способы, значения и этимология фразеологии в литературных произведениях.

Ключевые слова: Фразеология, фразеологизм, фразеологизм, этимология, денотатив, лексема, словосочетание, стилистическая окраска, язык, речь.

Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema — ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarining umumiy nomi. Frazeologizmlar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma'no va muayyan leksik grammatic tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo'llaniladi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni yanada oydinroq yoritagidan bo'lsak, kishi miyyasining til xotira qismi, ya'ni lisoni mavjud. Biz nutqimizda foydalanayotgan barcha so'zlar lisonizmizda leksema sifatida mavjud bo'lib, u oldindan lisonimizda shakllangan va tayyor holda bizga yetib kelgan. Frazeologik birliklar ham xuddi leksemalar kabi oldindan lisonimizda mavjud va bizga ajdodlarimizdan muayyan o'zgarmaydigan struktura holdida yetib kelgan. Frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik shakl va mazmunning dealektik birligidan iborat.

Frazeologizmning shakliy tomonini so'z (leksema emas) tashkil qiladi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma'nodir. Frazeologik ma'no o'ta murakkab tabiatli, leksemada bo'lgani kabi ayrimi denotativ tabiatli bo'lsa, boshqalari grammatik ma'noga ega, xolos. Masalan, mustaqil so'z turkumiga kiruvchi frazeologizm: (*burgaga achchiq qilib, ko'rpgaga o't qo'ymoq, tarvuzi qo'lting'idan tushmoq; ko'ngli bo'sh; hash pash deguncha*) denotativ ma'noga ega bo'lsa, (*turgan gap, shunga qaramay*) kabi nomustaqlar frazeologizmlar faqat grammatik vazifa bajaradi.

Odatda frazeologizmlarning ma'nosini bir leksema ma'nosiga teng deyiladi. Ammo men bu fikrga qo'shilmayman. Chunki frazeologizm va leksema ma'nosini teng bo'lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo'lib qolar edi. Misol uchun: (yoqasini ushlamoq) frazeologizmi bilan (*hayron bo'lmoq*) leksemasing ma'nolarini qiyoslab ko'raylik. Mazkur frazeologizm "kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan o'ta darajada ta'sirlanib, taajjublanmoq" bo'lsa, [*hayron bo'lmoq*] leksemasi "kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan ta'sirlanmoq" semasiga ega. Har ikkala ma'noda ham kishi ichki ruhiy holatini (denotat) aks etgan.

Biroq frazeologizm ma'nosida "o'ta darajada" so'zlashuv uslubiga xos, bo'yoqdor, semalariga egaligi bilan "*hayron bo'lmoq*" leksemasidan farqlanadi. Demak, frazeologizmning ko'pincha, ifoda semalarida obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi. Umuman olganda frazeologik ma'no torroq va muayyanroq, leksema ma'nosini esa unga nisbatan kengroq va mavhumroq bo'ladi.

Masalan, [*hayron bo'lmoq*] leksemasi umumuslubiy va bo'yoqsiz. Shuning o'ziyoq barcha uslubda qo'llanish imkoniga egaligini va turli bo'yoqlar bilan ishlatish mumkinligini ko'rasatadi.

Ko'rindiki, frazeologizm leksema bir narsa yoki hodisani atasada (atash semalari bir xil bo'lsa-da), ifoda bo'yoqlari bilan keskin farqlanib turadi (ya'ni ifoda semalari turlichadir).

Frazeologizm birdan ortiq mustaqil so'zdan tashkil topadi. Biroq frazeologizmni tashkil etuvchi so'zlarning anglatayotgan ma'nosini va frazeologizm anglatayotgan ma'no o'rtaida, ba'zan ma'noviy yaqinlik mavjud, ba'zida esa umuman yo'qolib ketadi. Misol uchun: [*Qo'yniga qo'l solmoq*] frazeologizmning ma'nosini [*qo'yin*], [*qo'l*], [*solmoq*] leksemalari ma'nolari sintezi yoki qo'shilushi emas. Frazeologizmning ma'nosini tashkil etuvchi so'z to'la yoki qisman ko'chma ma'noda ishlatilishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan birovning fikrini bilishga urinish harakati uning qo'ynini titkilab, nimasi borligini bilishga intilish harakatiga o'xshaydi. Natijada, *qo'yniga qo'l solmoq* erkin birikmasi o'zidan anglashilgan mazmunga o'xshash bo'lgan boshqa bir mazmunni ifodalashga ixtisoslashadi va qurilma frazeologizmga aylanadi. Yoki kishi qo'lting'lab kelayotgan tarvuzini tushurib yuborsa, qanday ahvolga tushadi? Biror narsadan ruhiy tushkunlikka tushgan odamning holati shunga monand va erkin birikma frazeologizm mohiyatiga ega bo'lgan.

Bu esa frazeologik ma'noni mantiqiyligidan dalotat beradi. Demak frazelogizmni tashkil etuvchi so'zlarda qisman bo'lsada ma'noviy yaqinlik mavjud.

Ba'zan frazeologizm tarkibidagi ayrim so'zlarning ko'chma ma'noda, boshqalarining esa o'z ma'nosida qo'llanish holatlarini ham kuzatishimiz mumkin. Misol sifatida [*boshiga yetmoq*], [*aqlini yemoq*], [*ko'zini bo'yamoq*], [*ko'zi ko'ziga tushmoq*], [*og'zi qulog'ida*] frazeologizmlarida (*bosh, aql, ko'z, og'iz* ,) so'zlari o'z ma'nosida , (*yetmoq, yemoq, bo'yamoq, tushmoq, qulog'ida*) so'zlari ko'chma ma'noda qo'llanilgan.

Ba'zan harakat-holatning natijasini ifodalovchi qurilma frazeologizmga aylanishi mumkin.

Bunga misol qilib, kishi afsuslanishi natijasida barmog'ini tishlab qolishi mumkin.

Shuning uchun *barmog'ini tishlab qolmoq* qurilmasi frazeologizmga aylangan. Yoki bo'lmasa inson biror narsadan jahli chiqqanda, norozi bo'lganda ushbu holatda jim turish uchun sukut saqlaydi. Bu holatda *tishini tishiga qo'ymoq* frazemasi vujudga keladi. ***Tepa sochi tikka bo'moq, labiga uchuq toshmoq*** iboralari ham shular jumlasidan.

Iboralarning umumiyligi ma'nosini bilan uni tashkil etgan qismlarning xususiy ma'nolari o'rtaida ko'pincha ziddiyat mavjud bo'ladi. Misol uchun: **Oyog'ini qo'liga olmoq** iborasi butun holda ko'chma ma'noni "shoshilish" ma'nosini ifodalaydi, ammo bu ma'no ibora tarkibidagi oyog'ini qo'liga so'zlarining na asl na ko'chma ma'nolari bilan bog'liq emas. Masalan: Hoji o'pkasini qo'ltilqab xonaga kirib keldi. (M) Akam achchig'idan to'nini teskari kiyib oldi.

Kambag'allar ikki barmog'ini burniga tirab olmasin. (M. I) Boyni hali to'ng'iz qopadi. (O) va boshqalar.

Ayrim frazeologizmlarni tashkil etgan so'zlar ma'nosini va frazeologizmda anglashilinayotgan ma'nolar o'rtaida yaqinlik bor yoki yo'qligini bilish uchun uning etimologiyasini o'rganish talab qiladi. Masalan, "*terisiga somon tiqmoq*" iborasini olaylik.

Yaxshiki, boyagi gaplaringizni o'g'lim eshitmadni, yo'qsa, teringizga somon tiqqan bo'lar edi. (M.Osim, Ajodolarimiz qissasi) *Menga do'ppisi emas o'zi kerak. O'zini tiriklay tutib kel!*

Terisini shilib somon tiqmagunimcha xumordan chiqmayman. (N. Safarov, Ko'rgan kechirganlarim) Ushbu parchalarda **terisiga somon tiqmoq iborasi, jazolamoq, nihoyatda qattiq jazolamoq ma'nolarida kelyapdi**. Frazeologizm tarkibidagi so'zlarning ma'noga qanchalik yaqinligini aniqlash uchun, uning etimologiyasini tahlil qilamiz. Teriga somon tiqish qadimda chorvachi qishloq aholisi tomonidan bajarilgan harakatdir. Qadimda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qishloq aholisi, endi tug'ilib o'lib qolgan sigir bolasi, ya'ni buzoqlarning terisini shilib unga somon tiqishadi. Somon bilan to'ldirilgan buzoq terisini ona sigir yoniga qo'yishadi.

Natijada ona sigirning suti uyib, sog'ish jarayonini osonlashtirgan. Endi yuqorida keltirilgan frazeologizm ma'nosini va uning etimologiyasini taqqoslaydigan bo'lsak, terini shilib somon tiqish jarayoni naqadar achinarli va qaysidir ma'noda o'g'riqli holat bo'lib, nihoyatda qattiq jazolamoq holatini unga tenglashtirish mumkin. Bundan ko'rindaniki, fazeologizmlar ma'nolarini o'rganish va tahlil qilishda, uning etimologiyasini roli katta.

Ma’nosi tarixiy etimologiyasi bilan bog’liq bo’lgan bu kabi iboralar juda ko’p. Misol uchun: **Daqqiyunusdan qolgan iborasi**. “Juda eski, qadimgi” ma’nosini bildiradi (O’zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild. 580-bet). Bu ibora hozirgi kunda zamona zayliga ko‘ra qadimiy ko‘rinadigan, vaqt jihatidan avvalgi davrlarga oid bo‘lgan narsa-hodisalarga nisbatan qo‘llanadi.

Masalan: *Daqonusdan qolgan bu dahri dunda Bir yangi zarraday ko ‘zga ilinsam*. (Behzod Fazliddin, Sen qachon gullaysan). *Gulnora daqqiyunusdan qolgan kovushini kiyib, chirik paranjiga o’ranib, yo’lovchi bilan jo’nadi*. Odamga nisbatan ishlatilganda “zamondan orqada qolib ketgan” ma’nosini bildiradi. Masalan: *Har narsa deyavermang, rais bova. Daqqiyunusdan qolgan kampir kimga kerak?* (Tog‘ay Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi). Bu iboradagi *Daqonus* yoki *Daqqiyunus* ismi haqida har xil fikrlar bor. Ayrim olimlar uni Rim imperatori Diokletianning sharqona nomlanishi deydi. “Qur’oni karim”ning “Kahf” surasida *Daqonus* bilan bog’liq voqeа keltiriladi: zolim shoh istibdodidan dinu iymonlarini saqlab qolish uchun o‘z jonlarini fido qilgan yigitlar bir g‘orga panoh topib kirib, u joyda uch yuz yil qolib ketadilar. Chunki *Daqonus* g‘ordan chiqish yo‘lini berkitib tashlaydi. Lekin Olloh taolo o‘z qudratini namoyish etib, diniga sadoqatli yigitlarni uzoq vaqtga uxlatib qo‘yadi. Uyg‘onganlarida esa oradan uch yuz yil o‘tgan bo‘ladi.

Bundan bexabar yigitlar “bir yo yarim kun uxladic” deb o‘ylaydilar. Oralaridan bittasini yashirinchha shaharga yegulik sotib olishga jo‘natadilar. Yigit taom sotib olib, yonidagi tangani uzatganida, sotuvchi hayron bo‘lib: “Bu Daqonusdan qolgan tanga-ku, biron yerdan xazina topib oldingmi?” deb so‘raydi. Yigit ham hayron bo‘lib: “Hech qanday xazina topib olganim yo‘q, bu mening qavmim ishlatadigan oddiy tanga”, deb javob qilib, *Daqonusga* nima bo‘lganini so‘raydi...” (Qur’oni azim muxtasar tafsiri. Mufassir: Shayx Alouddin Mansur. 466–467-betlar).

Daqonus shoh esa allaqachon o‘lib ketgan bo‘lad. Ushbu iboraning ham hozirgi kunda ishlatilinayotgan ma’nosи, uning kelib chiqishi bilan bevosita bog’liq ekanligi ravshanlashdi.

Daqqiyunusdan qolgan iborasiga sinonim qilib, **alimsoqdan qolgan** iborasini olishimiz mumkin. Bu ibora ham “juda eski”, “juda qadimgi” ma’nolarini bildiradi. Iboradagi asosiy ma’no arabcha “almiysoq” so‘zidan kelib chiqqan. “Almiysoq” arab tilida “ahd”, “qasam”, “shartnomा, bitim” ma’nolarini bildiradi (O’zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild. 73-bet). Almiysoq – miysoq berish, ya’ni Ollohga va’da berish demakdir. *Almisoqdan qolgan* iborasining o‘zbek tilidagi bugungi ma’nosiga asos bo‘lgan voqeа ancha avvalgi davrlarga borib taqaladi. Qur’oni karimning “A’rof” surasida bayon etilgani – insonlarning Olloh taologa miysoq berish voqeasi asosida ushbu iboraning ma’nosini tushuntirib o‘tamiz: “A’rof” surasi 172-oyatidan shunday mazmun anglashiladi: “Olloh taolo o‘z qudrati bilan Odam alayhissalomning belidan undan tarqaydigan barcha surriyotlarni chiqarib, ularga O‘zining mo‘jizalarini ko‘rsatgach: “Aytinglar-chi, Men Sizlarning Rabbingiz emasmanmi?” deganida, ular:

“Parvardigoro, O’zing barchamizning Robbimizsan, bizlar bunga guvoh bo‘ldik”, deb Ollohga ahdu paymon qilgan, ya’ni miysoq bergan ekanlar. Shuning uchun islom ulamolari: “Kimda-kim kofir bo‘lsa yoki dinidan qaytsa, o‘zining

Ollohga bergan miysoqidan (Ollohda qilgan ahdidan deyilmoqchi) qaytgan bo‘ladi”, deydilar. Muhammad alayhissalomning: “Har bir tug‘ilgan bola toza holda – islomda tug‘iladi, keyin ota-onasi uni yo yahudiy, yo nasroniy, yo majusiy qilib buzuq tarbiya berishadi”, degan hadislarining mazmuni ham yuqoridagi oyatlar ma’nosiga hamohangdir. (Qur’oni azim muxtasar tafsiri. Mufassir: Shayx Alouddin Mansur. 288-bet). Insonlarning Olloh taologa miysoq berish voqeasi juda qadim zamonlarda sodir bo‘lganligi uchun o‘zbek xalqi *almisoqdan qolgan* iborasini “qadimgi zamonlardan, Daqonus davrlaridan qolgan”, “juda eski bo‘lgan” degan ma’nolarda qo‘llab keladi. Masalan: *Manavilarni qo’shini almisoqdan qolgan qo’shin. Otam zamondan qolgan qo’shin!* (Tog‘ay Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi) *Uyoqda almisoqdan qolgan po’lat sandiq, quflar yo’qdir?* (Tohir Malik, Shaytanat).

Birovning sha’niga o‘zi yo‘qligida yomon so‘zlar aytmoq, kishini uning ortidan haqorat qilmoq. O‘zbekiston Qahramoni O.Sharafiddinov maqolalaridan birida o‘zbek tilidagi *go‘riga o’t qalamoq* iborasi tarixi haqida shunday yozgan edi: “Rahmatli buvim oddiygina qishloqi ayol bo‘lgan bo‘lsalar-da, juda chechan, har gapga biron matal yoki maqol qo‘sib gapirguvchi edilar.

Ba’zan meni koyib qolganlarida: “Buvijon, nega hadeb koyiyverasiz, axir nevarangizmanku?!” desam, “Nevaram bo‘lsang nima?! **Go‘rimga o’t qalarmiding?!**” der edilar. Men bu gapga tushunmasdim, savolimga go‘rning, unga o‘t qalashning nima daxli borligini bilolmasdim. Shu zaylda yillar o‘tdi. Oltmishinchchi yillarda hindlarning buyuk dohiysi Javoharla’l Neru olamdan o‘tdi. Uning dafn marosimi matbuotda batatsil yoritildi. Ma’lum bo‘ldiki, hindiyalar hozir ham o‘lgan odamning jasadini gulkanda yondirib, kulini Ganga darosiga sepib yuborishar ekan.

Neruning vasiyatiga ko‘ra, uning jasadiga eng sevimli nevarasi o‘t qo‘yibdi. Birdan buvimning o‘sha naqlini esladim: demak, bir zamonlar bizda jasad yoqilgan ekan-da, demak, gulkanga o‘t qo‘yish nevara uchun eng faxrli ish bo‘lgan ekan-da? Bundan chiqadiki, o‘sha ibora kamida 2,5 – 3 ming yillik tarixga ega”. (Ozod Sharafiddinov, Tilda hikmat ko‘p). Demak ushbu ibora qadimda ijobiy ma’noda qo’llanilib, bora-bora ibora kelib chiqishiga asos bo‘lgan urf-odatning yo‘qolishi natijasida uning ma’nosи ham salbiylashib, hozirgi kunda salbiy ma’noda qo’llanilayapdi.

Qozon osmoq iborasi ham ma’lum bir tarixiy jarayon orqali vujudga kelgan. Ovqat pishira boshlamoq. Iboralardagi so‘zlarning paydo bo‘lish tarixini o‘rganish orqali o‘sha iboraning qachondan boshlab qo‘llana boshlaganini, bu iborani kashf qilgan xalqning qanday turmush kechirganini bilib olish mumkin. Ana shunday iboralardan biri **qozon osmoq** frazeologizmidir.

Tilshunos A.Nurmonov **qozon osmoq** iborasi haqida quyidagilarni yozgan:

“Masalan, qozon osmoq iborasi bor. Hozirgi kunda qozonning osilmasligi, balki o‘choq yoki gaz plitasi ustiga qo‘yilishi ma’lum. Bu iboraning ma’nosini tushuntirish jamiyatning qadimgi ko‘chmanchilik hayot tarzi haqidagi tasavvurimizni kengaytiradi. Qadimda o‘troqlashmagan jamiyat a’zolari turli joylarda ovqat pishirish uchun tagidan o‘t yoqiladigan moslamaga masalliq solingan idishni ilganlar”. (Abduhamid Nurmonov. Tanlangan asarlar).

Ayrim frazeologizm turli diniy aqida, tushuncha va rivoyat asosida ham shakllanadi:

1. *Uning eriga mening ko’zim tekkan emish.* (I. Rah.)
2. *Hammani qo ’yb, sizning soldat o’g ’lingizga tegaman deb ko’zim uchib turibdimi.* (M. Muham.) “*Jabrdiyda*” ning ham, guvohlarning ham **dumi xurjinida** gaplari shunday savollar berilishni talab etadi. (M. Ism)

Yuqoridagi ma’lumotlardan shuni tushunishimiz mumkim-ki, frazeologizmlar tilda rang-baranglik, uslubiy bo’yoqdorlik, mantiqiy chuqurlikni ta’minlashdan tashqari, ma’lum bir ma’noda tarixiy qadriyatlar, an’analalar, urf-odatlar kelib chiqishi va rivojlanishi haqida ma’lumot beradi.

REFERENCES

1. Tursunov. S, Jamolxonov. H va boshqalar. Hozirgi o’zbek adabiy tili. T.1992
2. S. Rahimov, B. Umarqulov . Hozirgi o’zbek adabiy tili T.2003 50-bet
3. *O’TIL. - O’zbek tilining izohli lug’ati. 5 jildlik. 1-,2-,3-,4-,5-jildlari. T.: 2006-2008
4. Tohir Malik. Shaytanat. www.ziyo.com-2007.
5. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va boshqalar. Hozirgi o’zbek adabiy tili.T.2009. 125-bet
6. O’zbek tilining lug’ati. 2005
7. O’zbek tilining etimologik lug’ati. 2000